



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari	150
Askar Axrorovich Siddikov, Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov Yashil mehmonxona va restoranlar: ekologik boshqaruv va barqarorlik	154
ИНВЕСТИЦИЯ	
Шохида Ильясовна Артикова, Дилноза Наврузовна Султонова Реальные инвестиции как фактор повышения развития экономики страны	157
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Xurshida Abdumalikovna Karjavova Sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	161
Alisher Komilovich Baxadirov O‘zbekistonda lizing oluvchilarni ijara muomalalari hisobining amaldagi holatini barqarorlashtirish yo‘llari	167
Faridun Mustafoyevich Tursunov Tijorat banklarida innovatsion masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari	172
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдиназаровна Бабаназарова Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар	177
Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlili	182
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish va takomillashtirish	190
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова Корхоналарда даромад ва харажатлар таснифини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш	192
Sirojiddin Haydarovich Shermamatov Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishning muammo va istiqbollari	200
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Азимжон Фаррухович Мустафоев Нодавлат таълим ташкилотларида моддий харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	205
To‘lqin Mardiyev, Azizbek Gafurov Qardosh bo‘lmagan tillarda iqtisodiy idioma va frazeologiyalarning leksik-semantik xususiyatlari	212
Хилола Нематовна Очилова Камбағалликни қисқартиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва аҳамияти	215
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев 1. Энг зарур тиббий ўғитлар. 2. Онкологлар энди мени кечиришмайди. бутун дунё топмаган дардимга, биргина мева даво бўлди!!	219

Sirojiddin Xaydarovich Shermamatov – Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti
Raqamli iqtisodiyot fakulteti dekani muovini

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditidagi dolzarb masalalar yoritilgan bo‘lib, asosiy muammolar sifatida aktivlarni baholash amortizatsiya ajratmalari va ularning hisobotlarda aks ettirilishidagi kamchiliklar, zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajribalar asosida uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan bu esa buxgalteriya amaliyotining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: uzoq muddatli aktivlar, buxgalteriya hisobi, audit, amortizatsiya, aktivlarni baholash, moliyaviy hisobot, shaffoflik, xalqaro tajriba, samaradorlik.

Kirish. Uzoq muddatli aktivlar har qanday iqtisodiy subyektning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ularning hisobini to‘g‘ri yuritish va auditini samarali tashkil etish moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli aktivlarning hisobini xalqaro standartlarga muvofiq yuritish korxonalarining shaffofligini oshiradi va investorlar uchun yanada ishonchli axborot taqdim etadi. Masalan, 2005-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS) o‘tishi natijasida korxonalarining hisob siyosati ancha uyg‘unlashgan va investitsion jozibadorlik oshgan. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya uzoq muddatli aktivlar hisobini yuritishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanmoqda. Masalan, AQShda UFRS (GAAP) standartlariga asoslangan tizim amal qiladi, Buyuk Britaniyada esa xalqaro standartlarga moslashtirilgan yondashuvlar mavjud. Germaniya moliyaviy hisobotning an‘anaviy modelini saqlab qolgan bo‘lsa-da, xalqaro standartlarga moslashuv jarayonini davom ettirmoqda. Yaponiya esa mahalliy standartlarini xalqaro me‘yorlarga yaqinlashtirishga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida uzoq muddatli aktivlar hisobining xalqaro talablarga mos kelishini ta‘minlash uchun bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-yildan boshlab moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha qator normativ hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, auditorlik tizimi ham isloh qilinib, buxgalteriya hisobi va audit sifatini oshirish maqsadida yangi metodikalar joriy etilmoqda. Ammo amaliyotda uzoq muddatli aktivlar hisobini yuritish va auditini tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Xususan, bu sohada mutaxassislarning xalqaro standartlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligi, axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi va normativ-huquqiy bazaning mukammal emasligi kabi omillar dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, ayrim korxonalarda eskirgan hisob usullari hamon qo‘llanib kelayotgani ularning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli aktivlar hisobini yuritishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Masalan, Germaniya va AQSh kompaniyalari bu borada ilg‘or texnologiyalarga tayanib, hisob-kitoblarning aniqligi va tezkorligini ta‘minlamoqda. O‘zbekistonda ham bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, biroq hali ham to‘liq avtomatlashtirish darajasiga erishilmagan. Shuningdek, uzoq muddatli aktivlar hisobining shaffofligi auditorlik jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu borada Yaponiya tajribasi e‘tiborga loyiq bo‘lib, u yerda audit tizimi aniq reglamentlangan va audit natijalari moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlaydi. O‘zbekistonda esa auditorlik tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqligini oshirish lozim. Uzoq muddatli aktivlarning baholash usullarini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada aktivlar amortizatsiyasi va baholash tizimlari aniq tartibga solingan bo‘lib, bu korxonalarining moliyaviy natijalarini obyektiv aks ettirishga yordam beradi. O‘zbekistonda esa bu borada yanada chuqur islohotlar olib borish talab etiladi. Kelajak istiqbollari shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish va audit sifatini oshirish uchun xalqaro standartlarga to‘liq moslashish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan

keng foydalanish va mutaxassislar malakasini oshirish lozim. Shu orqali korxonalarining moliyaviy shaffofligi va investitsion jozibadorligi yanada ortadi. O‘z navbatida, bu mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditi bo‘yicha bir qator xorijlik va respublikamiz olimlari tadqiqot olib borishgan. Jumladan Hans-Jürgen Kirsch tadqiqotlarida asosan uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditi bo‘yicha xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va milliy standartlar (HGB) o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotchi uzoq muddatli aktivlarning baholanishi, amortizatsiya usullari va ularning moliyaviy hisobotlardagi ta‘sirini o‘rganadilar[1]. Jane Broadbent va Richard Laughlin kabi tadqiqotchilar aktivlarning qadrsizlanishi, amortizatsiya usullari va ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini tahlil qiladilar[2]. Kazuo Hiramatsu uzoq muddatli aktivlarning baholanishi, amortizatsiya usullari va ularning moliyaviy hisobotlardagi ta‘sirini o‘rganadilar[3]. Muyassarxon Daminova Botirjon qizi Uzoq muddatli va joriy aktivlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. U xalqaro buxgalteriya standartlariga rioya qilish korxonalarining moliyaviy barqarorligi va shaffofligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynashini qayd etadi[4]. Zuxriddin Xojimurodov Qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni respublikamizda qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qiladi. U xalqaro standartlarni joriy etish orqali moliyaviy natijalarni yaxshilash va jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oshirish mumkinligini ta‘kidlaydi[5]. Eshonqulov Azamat Abdiraximovich va Avezova Dilrabo Faxritdinovna Banklarda uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqib, uzoq muddatli aktivlarning to‘g‘ri hisobga olinishi va boshqarilishi bank faoliyatining muvaffaqiyati uchun zarur ekanligini ta‘kidlaydilar[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etish bo‘yicha tadqiqot metodologiyasi sifatida ko‘pincha tahliliy, empirik va komparativ yondashuvlar qo‘llanilgan bo‘lib, moliyaviy hisobot ma‘lumotlarini statistik tahlil qilish, xalqaro va milliy standartlarni taqqoslash, amaliy misollar va holat tahlili (case study) orqali real biznes amaliyotlarini o‘rganish kabi usullarga asoslangan.

Tahlil va natijalar. Uzoq muddatli aktivlar hisobini yuritish va auditini tashkil etish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida ushbu aktivlarning aniq va shaffof hisobga olinishi investorlar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli moliyaviy axborot taqdim etishning asosiy shartlaridan biridir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va milliy standartlarga muvofiq hisob yuritish jarayonida turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolar nafaqat moliyaviy natijalarga, balki umumiy biznes boshqaruvi va strategik qaror qabul qilish jarayonlariga ham bevosita ta‘sir qiladi.

Birinchi muammo uzoq muddatli aktivlarning baholanishi va amortizatsiya usullarining turli standartlarga mos kelmasligi bilan bog‘liq. Xalqaro va milliy standartlar o‘rtasidagi tafovutlar korxonalar uchun qo‘shimcha xarajat va murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, Germaniyada uzoq muddatli aktivlar milliy standart (HGB) bo‘yicha ehtiyotkorlik tamoyiliga asoslanib hisobga olinadi, holbuki IFRS bo‘yicha ular bozor qiymati asosida qayta baholanishi mumkin. Bu esa turli mamlakatlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun moslashuv muammosini tug‘diradi.

Ikkinchi asosiy muammo esa audit jarayonining murakkabligi va shaffoflik darajasining pastligi hisoblanadi. Uzoq muddatli aktivlarning qadrsizlanishi va ularning bozor qiymatini baholashning murakkabligi auditorlar uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda aktivlarning qadrsizlanishini aniqlash va baholashda subyektiv yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu investorlar va manfaatdor tomonlar uchun tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, aktivlarni baholashda yagona, standartlashtirilgan metodologiyani ishlab chiqish bugungi kunda muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditi bo‘yicha mavjud muammolarni bartaraf etish va bu jarayonni takomillashtirish uchun xalqaro standartlarga mos keladigan yangi yondashuvlarni

ishlab chiqish zarur. Uzoq muddatli aktivlarning hisobini yuritish va audit jarayonining samaradorligini oshirish uchun taklif etilayotgan yechimlar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditidagi muammolar va ularning yechimlari¹

№	Muammo	Yechim	Kutilayotgan natija	Amalga oshirish muddati
1	Aktivlarning baholashdagi noaniqliklar	Yagona xalqaro baholash metodologiyasini joriy etish	Standartlashtirilgan va ishonchli moliyaviy hisobot	1-2 yil
2	Amortizatsiya usullarining xilma-xilligi	MHXS va BHMSlarni uyg'unlashtirish	Moliyaviy natijalarning taqqoslanishi osonlashadi	2 yil
3	Audit jarayonidagi murakkabliklar	Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llash	Audit sifati oshadi, xatoliklar kamayadi	3 yil
4	Qadrsizlanishni baholashdagi subyektivlik	Obyektiv baholash mezonlarini ishlab chiqish	Investorlar uchun ishonchli axborot ta'minlanadi	1 yil
5	Korporativ shaffoflikning pastligi	Majburiy hisobdorlik va oshkoralik standartlarini joriy etish	Moliyaviy axborotning ishonchliligi ortadi	2 yil
6	Audit tizimida korrupsiya xavfi	Mustaqil audit qo'mitasini tashkil etish	Audit jarayonining adolatli bo'lishi ta'minlanadi	1 yil
7	Milliy standartlar bilan uyg'unlashmovchilik	Xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o'tish	Hisobotlarning global miqyosda tushunarli bo'lishi	3 yil
8	Aktivlarning moliyaviy hisobotga ta'sirini kamaytirish	Kapital aktivlarni boshqarish strategiyalarini joriy etish	Korxonalar barqarorligini oshirish	2 yil
9	Davlat sektorida auditning sustligi	Davlat sektori uchun alohida audit metodologiyasini ishlab chiqish	Davlat moliyaviy shaffofligini oshirish	2 yil
10	Aktivlarning bozor bahosini inobatga olmaslik	Dinamik baholash tizimini yaratish	Moliyaviy hisobot real qiymatga yaqin bo'ladi	2 yil

Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishda turli muammolar mavjud bo'lib, ular xalqaro va milliy standartlarning farqlari, baholash mezonlarining noaniqligi va audit jarayonidagi murakkabliklar bilan bog'liq. Ushbu muammolar moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va audit tizimini takomillashtirish orqali ushbu muammolarni hal qilish muhim hisoblanadi. Taqdim etilgan jadvalda uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditidagi asosiy muammolar hamda ularning yechimlari ko'rsatilgan. Taklif etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilganda, buxgalteriya va audit tizimining samaradorligi oshib, investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ishonchli moliyaviy axborot taqdim etish imkoniyati kuchayadi. Shu bilan birga, aktivlarning baholash mezonlari yaxshilanib, moliyaviy natijalarning barqarorligi ta'minlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini yanada samarali va aniqroq yuritish uchun xalqaro amaliyotlarni chuqur o'rganish, standartlarni uyg'unlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda mazkur sohadagi taklif

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

etilgan yechimlar va ularning amaliy qo‘llanishi keltirilgan.

2-Jadval.

Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha takliflar¹

№	Taklif	Amaliy qo‘llanish sohasi	Kutilayotgan natija	Amalga oshirish muddati	Mas‘ul shaxs/yuridik shaxs
1	Xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish	Moliyaviy hisobot	Hisobotlar global darajada tushunarli bo‘ladi	3 yil	Davlat va xalqaro moliya tashkilotlari
2	Raqamli audit tizimlarini joriy etish	Audit jarayoni	Audit sifati oshadi, inson xatosi kamayadi	2 yil	Auditorlik kompaniyalari
3	Mustaqil auditorlar sonini oshirish	Auditorlik xizmati	Audit jarayonining shaffofligi ta‘minlanadi	2 yil	Mustaqil auditorlar
4	Amortizatsiya jarayonlarini raqamlashtirish	Uzoq muddatli aktivlar hisoboti	Amortizatsiya aniq hisoblanadi	1 yil	Korporativ moliyaviy menejerlar
5	Aktivlarni baholashda avtomatlashtirilgan tizimlarni qo‘llash	Moliyaviy hisobot	Obyektiv va real baholash ta‘minlanadi	2 yil	Moliyaviy texnologiya kompaniyalari
6	Korrupsiya xavfini kamaytirish bo‘yicha qonunlarni takomillashtirish	Davlat sektori	Davlat sektorida audit samaradorligi oshadi	2 yil	Davlat regulyatorlari
7	Investorlar uchun ochiq ma‘lumot bazasini yaratish	Xususiy sektor	Investorlar uchun aniq moliyaviy ma‘lumot taqdim etiladi	2 yil	Xalqaro moliyaviy institutlar
8	Davlat sektori auditi uchun alohida metodologiya ishlab chiqish	Davlat auditi	Moliyaviy shaffoflik oshadi	3 yil	Davlat auditi organlari
9	Uzoq muddatli aktivlarni bozor sharoitlariga mos baholash	Kapital aktivlar	Moliyaviy hisobotlar real bozor qiymatiga asoslanadi	2 yil	Xalqaro va mahalliy moliyaviy tashkilotlar
10	Uzoq muddatli aktivlarni investitsiya strategiyalariga integratsiya qilish	Korporativ moliya	Barqarorlik va kapital samaradorligi ortadi	3 yil	Korporativ moliya bo‘limlari

Jadvalda keltirilgan takliflar uzoq muddatli aktivlar boshqaruvini kuchaytirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlash va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, investorlar uchun ochiq ma‘lumot bazalarini yaratish va aktivlarning real bozor qiymatiga asoslangan baholash tizimini joriy etish kelajakda kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi. Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha takliflar xalqaro standartlarga mos keladigan, shaffof va ishonchli moliyaviy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Audit jarayonida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlaridan foydalanish, korrupsiya xavfini kamaytirish va xalqaro standartlarni milliy me‘yorlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu takliflar

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

amalga oshirilganda, audit sifati oshib, uzoq muddatli aktivlarning hisobga olinishi yanada aniq va samarali bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish zamonaviy biznes muhitida muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud muammolar orasida aktivlarni baholash mezonlarining noaniqligi, xalqaro va milliy standartlarning farqlari, amortizatsiya usullarining xilma-xilligi va audit jarayonidagi shaffoflik masalalari asosiy o‘rin tutadi. Ushbu muammolarni hal etish orqali kompaniyalar moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashi va investorlarga ishonchli hisobot taqdim etishi mumkin. Quyidagi takliflar uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini samarali tashkil etishga yordam beradi:

1) MHXS va milliy hisob standartlarini uyg‘unlashtirish orqali buxgalteriya hisobotlarining taqqoslanishi va ishonchliligini oshirish.

2) Aktivlarning real bozor qiymatini aniqlash uchun sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish.

3) Mustaqil auditorlar sonini oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va audit jarayonining ochiqlikini ta‘minlash.

4) Davlat korxonalarida moliyaviy nazoratni kuchaytirish va budget mablag‘larining samarali ishlatilishini ta‘minlash.

5) Kompaniyalar va davlat tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini keng jamoatchilik uchun ochiq qilish orqali investorlarning ishonchini oshirish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditi yanada shaffof, ishonchli va samarali bo‘ladi. Natijada, biznes muhitining barqarorligi ta‘minlanib, xalqaro standartlarga mos keladigan moliyaviy tizim shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hans-Jürgen Kirsch Accounting for Long-Lived Assets under IFRS and HGB: Challenges and Perspectives" Journal of Applied Accounting Research.-Germaniya. 2016 yil.123–145 betlar.

2. Jane Broadbent va Richard Laughlin. Performance Auditing and the Modernisation of the Public Sector Financial Accountability Management.- Angliya: 2015 yil. 219–245 betlar.

3. Kazuo Hiramatsu .Accounting for Fixed Assets in Japan: Issues and Future Directions. Asian Review of Accounting. -Yaponiya: 2017 yil. 89–110 betlar.

4. Daminova B.M. Uzoq muddatli va joriy aktivlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish.Mudarris Ziyο. -Toshkent. 2024 yil. 45–56 betlar

5. Xojimurodov Z. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo‘yicha xorijiy tajribalar Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot. -Toshkent. 2024 yil. 32–47 betlar.

6. Eshonqulov A. A., Avezova D.F. Banklarda uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalari. Pedagoglar Ilmий Jurnalι. -Toshkent. 12-to‘plam 1-son oktabr 2024 yil. 58–72 betlar

<p>С.Шермаматов</p> <p>Проблемы и перспективы организации учета и аудита долгосрочных активов</p> <p>Аннотация. В данной статье освещены актуальные вопросы учета и аудита долгосрочных активов. Так как основными проблемами являются оценка активов, амортизационные отчисления и недостатки в их отчетности, даны предложения по совершенствованию учета и аудита долгосрочных активов на основе современных подходов и международного опыта, что служит повышению прозрачности и эффективности бухгалтерской практики.</p> <p>Ключевые слова: долгосрочные активы, учет, аудит, амортизация, оценка активов, финансовая отчетность, прозрачность, международный опыт, эффективность.</p>	<p>S.Shermamatov</p> <p>Problems and prospects of organizing the account and audit of long-term assets</p> <p>Abstract. In this article, current issues in the accounting and auditing of long-term assets are covered. As the main problems are asset valuation, amortization allowances and shortcomings in their reporting, suggestions for improving the accounting and auditing of long-term assets based on modern approaches and international experiences are given, which serves to increase the transparency and efficiency of accounting practice.</p> <p>Keywords: long-term assets, accounting, auditing, depreciation, asset valuation, financial reporting, transparency, international experience, efficiency.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.